UO‘K: 821.512.133-193

“XONADON (O‘CHOQ) QO‘RIQCHISI”NING MANFAATLI NIKOH MOTIVI VARIATSIYASIGA TA’SIRI
(“Osmon ustuni” va “Odam bo‘lish qiyin” romanlari misolida)

D.A. Azizova

Maqolada “Osmon ustuni” va “Odam bo‘lish qiyin” romanlaridagi manfaatli nikoh motivlar kompleksi tahlil qilingan. Bir davrda yaratilgan romanlarning o‘zaro dialogik aloqasi manfaatli nikoh motivining komponentlari tasnifi va ularning funksiyalari tahlilida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, “xonadon (o‘choq) qo‘riqchisi”ining faollashuvi, uning manfaatli nikoh motivi variatsiyasiga ta’siri masalasi yoritilgan. Qo‘yilgan muammoni tadqiq etishda mifologik, qiyosiy-tipologik, struktural tahlil usullaridan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: *“xonadon (o‘choq) qo‘riqchisi”, motiv, motivlar kompleksi, syujet sxemasi, adabiy-madaniy kontekst, ijtimoiy ong.*

В статье анализируется комплекс мотивов “брак по расчету” в романах «Столп небесный» и «Трудно быть человеком». Диалогическая связь произведений, относящихся к одному периоду истори общества, рассмотрена путем классификации компонентов мотива брак по расчету и их функций. Также изучается влияние активизации мотива «хранитель домашнего очага» на вариацию мотива “брак по расчету”. При изучении поставленной проблемы использованы методы мифопоэтического, сравнительно-типологического, структурного и, отчасти, психологического анализа.

Ключевые слова: *“хранитель очага”, мотив, комплекс мотивов, сюжетная схема, литературно-культурный контекст, общественное сознание.*

Kirish

Mixail Baxtinning katta dialog nazariyasiga ko‘ra, bir adabiy davrda yaratilgan badiiy asarlar bir-birini mazmunan to‘ldirib, davr, jamiyat, kishilar ruhiyati haqida keng badiiy informatsiya beradi [1. B. 28]. Professor D.Quronov ta’kidlaganidek, “ma’lum vaqt oralig‘ida mavjud ijtimoiy-madaniy sharoitda kechuvchi adabiy jarayon ham nisbiy butunlik, ayni hol shu davrda yaratilgan asarlarning o‘zaro dialogik aloqasini muqarrar qilib qo‘yadi” [2. B. 4]. Bundan ko‘rinadiki, bir adabiy davrda yaratilgan asarlarning har biri tom ma’noda original, o‘z poetik xususiyatlariga ega individual hodisa sanalsa-da, ularni o‘zaro bog‘lovchi mushtarak nuqtalar kuzatiladi. “O‘tkan kunlar”, “Kecha va kunduz”, “Qutlug‘ qon” romanlari vaqtida ana shunday aloqada bo‘lgan. Bunda uzilmas aloqa zanjiriga o‘xshash muayyan iyerarxiya yuzaga keladi. Birinchi o‘zbek romani – “O‘tkan kunlar” ham xalq og‘zaki ijodi, mumtoz adabiyot bilan dialogik aloqada maydonga kelgan. [3.] Keyinroq “O‘tkan kunlar” adabiy-madaniy kontekstning haqiqiy a’zosiga aylangach, mustahkam ildiz sifatida “Kecha va kunduz”, “Qutlug‘ qon”, “Sarob” uchun ayni shu missiyani bajarib berdi. 60–70-yillar adabiyoti uchun esa “Sarob” romani “eski” sifatida “yangi” adabiyotga poydevor vazifasini o‘tadi. Shu ma’noda, ushbu maqolada Dadaxon Nuriyning “Osmon ustuni”, O‘lmas Umarbekovning “Odam bo‘lish qiyin” romanlarining qiyosiy tahlili orqali manfaatli nikoh motivi semantikasi, variantlari va variantlashuv omillari xususida to‘xtalamiz.

Material va usullar

Qo‘yilgan muammo Dadaxon Nuriyning “Osmon ustuni” va O‘lmas Umarbekovning “Odam bo‘lish qiyin” romanlari tahlilida ochib berildi. Muammoni tadqiq etishda mifologik, qiyosiy-tipologik, struktural tahlil usullaridan foydalanilgan.

Natijalar va va ularning tahlili

“Sarob”da jiddiy variatsiyaga uchragan manfaatli nikoh motivi 40–50-yillar nasrida nofaol motiv maqomiga tushdi. Buning ijtimoiy-tarixiy omili sifatida urush yillarida “kurash”, “vatanparvarlik”, “dushmanga nafrat” kabi motivlarning faollashuvini keltirish mumkin. Stalin vafoti, “Xrushchev bahori”ning boshlanishi bilan “adabiyotimizda ijodiy “men”ning isyoni kuchliroq namoyon bo‘la boshladi, dunyoni o‘zicha tushunish va baholashga intilish” [4. B. 47] kuchaydi. 60-yillarga kelib, manfaatli nikoh motivi qayta faollashdi. Zero, burjua jamiyatiga xos unsur sifatida qaralgan manfaat uchun uylanish/turmushga chiqish bilan bog‘liq voqealarni tasvirlash orqali mualliflar sinfsiz jamiyat va “kommunizm” qurish orzusiga qarama-qarshi yana ijtimoiy tengsizlik, muayyan sinf vakillari manfaatlarining ustuvorligini ifodaladilar.

Sinovlar yo‘li/ma’buda bilan uchrashuv. “Osmon ustuni” va “Odam bo‘lish qiyin” romanlarida yigit va qiz yoshlikdan birga o‘sgan, bundan tashqari “sinovlar yo‘li” har ikkisi uchun bir vaqtda reallashishini hisobga olib, “sinovlar yo‘liga kirish” va “ma’buda bilan uchrashuv” motivlarining parallel tarzda berilishi maqsadga muvofiq. Ushbu romanlarda qahramon(lar) uchun sinovlar yo‘li oliygohga o‘qishga kirish bo‘sag‘asida (xuddi “Sarob”dagidek) boshlanadi. Yigitali va Abdullaning sinovlar yo‘liga qadam qo‘yishi – shaharga ketishi bilan Nazira va Gulchehraning qishloqda – ota-ona yonida qolib, sinovlar yo‘lini shu yerda davom ettirishi kontrast qo‘yiladi. Maktabni oltin medal bilan tamomlagan Nazira (“Osmon ustuni”) o‘ziga berilgan mukofot – Toshkentda o‘qish orzusidan voz kechadi: “*Oliy o‘quv yurtiga kirishday yuksak niyat yo‘lida bel bog‘labsiz… Men ham bormoqchiydim. Hatto siz bilan ketishga tayyor edim. Keyin bundoq o‘ylab qarasam, bir hovlidan (o‘rtada devor bo‘lgani bilan hovlimiz bitta-ku!) ikkimiz birdan o‘qishni bahona qilib ketib qolishimiz, menimcha (Xurshidaning fikricha ham) yaxshi emasga o‘xshadi. Qariyalarga oz-moz yordam berib, qarashib turish kerak*” [3. B. 29]. O‘lmas Umarbekov qahramoni Gulchehra esa maktabda o‘qib yurgan vaqtlaridayoq qishloqda qolish qaroriga kelib bo‘lgan.

Bilamizki, ota-ona “xonadon qo‘riqchisi” sifatida qahramonning “sinovlar yo‘li”ga chiqishiga muayyan ma’noda to‘sqinlik qiladi. Holbuki, sinovlar yo‘liga chiqqan qahramongina ikki olam egaligiga erishib, haqiqiy erkka yetishi mumkin. O‘zbek xalq ertaklaridan birida ota yakka-yu yagona o‘g‘li ulg‘aygach, uni hunar o‘rganish, mohiyatan, sinovlarda toblanishga da’vat etadi. Ona esa o‘g‘lini mashaqqatli mehnatdan asrashga urinadi, mohiyatan, uning initsiatsiya – ulg‘ayish bosqichidan o‘tishiga beixtiyor to‘sqinlik qiladi. O‘g‘liga: *“sen og‘ir mehnat qilib, joningni qiynab yurma, ko‘chaga chiqib o‘rtoqlaring bilan o‘yna. Qaytib kelganingda otangga mana buni berarsan*” [5] – deb bir tanga pul beradi. Zero, onaning bu o‘rindagi harakatlari emas, keyinroq o‘g‘ilning o‘z mehnati bilan pul ishlashi, hunar egallashi – sinovlar yo‘liga qadam qo‘yishi ma’qullanadi. E’tibor berilishi kerak bo‘lgan jihat shundaki, ona yoki ota va boshqa personaj, yoki umuman detal, sharoit, keng ma’noda obraz qahramonni o‘zi yashab turgan makonidan maxsus – sinovlar yo‘liga chiqishiga to‘sqinlik qiladi, unga xalaqit beradi. V.Proppda bu саботаж (biror bir narsani bajarishga to‘sqinlik qilish, zimdan ish qilish, buzish va h. va b), J.Kempbellda esa da’vatni rad etish arxetipik motivi doirasida yuz beradi. Ertakda ona bir tomoni “xonadon qo‘riqchisi” sifatida farzandini xavfdan himoya qilsa, ikkinchi tomondan “sinovlar yo‘li”ga chiqishiga to‘sqinlik qiladi. Ertakda ham, undan keyin tahlil qilinuvchi “Osmon ustuni” va “Odam bo‘lish qiyin” romanlarida ham ikki funksiya parallel ravishda keladi.

“Osmon ustuni”, “Odam bo‘lish qiyin” romanlarida qahramonning sinovlar yo‘liga chiqishini qo‘llab-quvvatlasa-da, ota-ona ich-ichidan farzandini yonida olib qolish tarafdori. Ertakdagidan farqli, muallif personajning boshqa bir makonga ketishini katta avlodga nisbatan adolatsizlik deb qaraydi. Bu davrga kelib, “xonadon qo‘riqchisi” har qachongidan kuchaygan. Buning muhim omillari esa ijtimoiy-tarixiy muhit, siyosiy mafkura, ayniqsa, ikkinchi jahon urushi oqibatlaridir. Zero, urush kishilar ruhiyatida chuqur iz qoldirgan. Farzandlari janggohlardan qaytmagan ota-onalar, tabiiyki, boshqa farzandlarining har qanday holatda ham yonida bo‘lishini, omon qolishini istadi. Shu sababli qahramonning o‘zi tug‘ilgan makonni tashlab ketishi normal harakat hisoblanmagan. Muallif idealiga yaqin personaj ota-ona yonida qolgan qahramon bo‘lib, aslida, bu tipdagi obraz qadimdan mavjud. U, asosan, ertaklardagi katta o‘g‘il obraziga mos keladi. Adabiy-madaniy kontekst doirasida qaralsa, to‘ng‘ich o‘g‘il ota yonida qolish bilan “sinovlar yo‘lini rad etadi, bekam-u ko‘st yashasa-da, u buyruqqa itoat etuvchi ishchi xolos” [6. B. 40]. Kenja o‘g‘il esa muayyan tartib-qoidalarga bo‘ysunmay, “o‘zi”ni topishga intilishi bilan idealga yaqindir. 60–70-yillar o‘zbek nasrida bu tendensiya butunlay o‘zgargan – ota yonida qolgan inson (ba’zan u ota-ona farzandi ham emas, qo‘shni qiz yoki yigit, butunlay begona bo‘lishi ham mumkin) ideallashtirilgan. Entoni Surojning ta’kidlashicha, “to‘ng‘ich o‘g‘ilning qalbida samimiy, “tirik” sevgi yo‘q, u kechirish qobiliyatidan mahrum. <...> U otasining uyida yaxshi ishchi va uning hayoti benuqson. Ammo

u otalik va o‘g‘illik munosabatlarida asosiy narsa mehnat emas, balki yurak ekanini, burch emas, balki sevgi ekanligini tushunmagan. <...> U hech qachon buyruqni buzmagan va burchlarga sodiq edi” [7]. Ya’ni katta o‘g‘il otaga (uning mol-mulkiga) bog‘lanib qolgan, usiz muayyan maqomga erishib bo‘lmaydi, deb hisoblaydi. Bu esa uni otaga yanada qaram qilib qo‘yadi. Sho‘ro mafkurasi nuqtayi nazaridan qaralsa, to‘ng‘ich o‘g‘ilning – bo‘ysunuvchi, mavjud qoliplarni tan oluvchi, kerak bo‘lsa himoya qiluvchi – ideallashtirilishini tabiiy qabul qilish mumkin. “Osmon ustuni”, “Odam bo‘lish qiyin” romanlarida to‘ng‘ich o‘g‘il tipidagi personajlar transformatsiyaga uchragan – jiddiy tarzda qayta ishlangan. Aslida, to‘ng‘ich o‘g‘il sinovlardan qochib, manfaat va foydanigina ko‘zlab, xavfsiz joy – ota-ona yonida qoladi. Sanalgan romanlarda esa bunday personajlar uchun ham sinovlar yo‘li reallashadi. Ular o‘zi yashab turgan makon – qishloqda muayyan sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tgani uchun idealga yaqinlashadi. Aksincha, ota-onani kenja o‘g‘il singari tark etib, sinovlar yo‘lini markaziy shaharda davom ettirayotgan personaj esa idealdan yiroqlashadi (“adashgan o‘g‘il” motivi tomon siljish ro`y beradi). Biz uchun muhim jihati, ayni shunday qahramon manfaatli nikoh taklifi bilan sinaladi.

Usmon Azimning “Besehr ertak” she’rida [8. B. 135] xalq ertaklariga nisbatan paradoksni ko‘ramiz. “Aka qiyin hayot tarzini o‘zgartirishga urinadi: *“Daryo bo‘lib ketdi akam, qirg‘oqlarni yemirib*”. Kenja o‘g‘il ham mehnatdan ezilib, og‘ir hayotni yengiliga almashtiradi: “*Bir jodugar qush ortidan chopaverib adashdi…, Shamol bo‘lib ketdi ukam to‘ldirib dala-dashtni*”. O‘rtancha o‘g‘il otadan e’tirof kutadi, og‘a-inisi kabi e’zozlanmagani, mehnatiga loyiq mukofotga sazovor bo‘lmagani uni o‘ksitadi. Zero, ertakda qahramon (uch og‘a-ini)ning barcha xatti-harakatlari ota e’tirofiga sazovor bo‘lish, uning ishonchini oqlashga yo‘naltirilgan” [9. B. 242]. She’rda to‘ng‘ich o‘g‘il an’anaviy funksiyadan chetga chiqib, muayyan qoliplarni buzadi: *“daryo bo‘lib ketdi akam”,* kenja o‘g‘il o‘z funksiyasida qolgan, “katta o‘g‘il funksiyasi” – otaning yonida qolib, uning e’tirofiga erishish – o‘rtanchaning maqsadiga aylangan. Bu she’r 80-yillarda yozilgan bo‘lib, o‘rtancha o‘g‘il nuqtayi nazaridan beriladi. Ammo she’r muallifida “Osmon ustuni” va “Odam bo‘lish qiyin” romanlari mualliflaridan farqli ikkilanganlik, tanlagan g‘oyaga nisbatan pozitsiyani aniqlash mushkul kechganday. O‘rtancha o‘g‘il aka va ukaning erishgan maqomiga hasad qilmaydi, aksincha o‘zini ustun his qiladi va ularni “adashgan”, deb hisoblaydi. Yuqorida aytganimizdek, sovet davrida sinovlar yo‘liga chiqmaslik, bir makonda muqim qolish (asosan, qishloqda) ideallashtirilgan, ammo she’rda o‘rtancha o‘g‘il e’tirof kutayotgan bir paytda ota uyni tark etgan avlodlarini (an’anaga qaytish) tan oladi. Bu she’r otani tashlab ketgan avlodning aldanishiga o‘rtancha o‘g‘ildagi norozilik ifodasidir. Demak, 60–70-yillarda o‘zbek nasrida manfaatli nikoh motivi variantlaridagi “xonadon qo‘riqchisi”ga yondashuvning o‘zgarishi variantlashuv omillaridan biri bo‘lib, bu hol tarixiy-ijtimoiy kontekst ta’sirida yuzaga kelgan.

Bu davrda yaratilgan, manfaatli nikoh motivi variantlari uchrovchi asarlarda ota yoki ona yordamga muhtoj, qahramonning yordami esa hayotiy zarurat sifatida talqin etilgan. Bu narsa, ayniqsa, “Odam bo‘lish qiyin” romanida qahramon tanlovini xarakterlovchi muhim unsur sifatida ahamiyatli. “Bilmadim vrachlar ikkita kasal davosini haligacha topa olmayaptilar: bittasi qon bosimi (Abdullaning otasi – *D.A*.), bittasi saraton” (Gulchehraning onasi – *D.A*.) [10. B. 113]. Har ikki qahramon bir xil vaziyatda, lekin ularning tanlovi boshqa-boshqa. Gulchehra ota-onasini o‘ylab, o‘z manfaatlaridan voz kechsa, Abdulla Moskvada o‘qishni tanlab, o‘z manfaatlari yo‘lidan yuradi. Ko‘ramizki, ota-ona holati Gulchehraning tanloviga bevosita ta’sir o‘tkazgan. Abdullaning harakatlari orqali esa muallif uning xarakteridagi xudbinlikni urg‘ulagan. “Osmon ustuni” romanida Nazira xuddi Gulchehra kabi katta avlodga g‘amxo‘rlik qilish maqsadi bilan qishloqda qolsa, Yigitalining shaharga ketishida xudbinlikdan ko‘ra, ruhiy bosim, qo‘rquvning ta’siri yetakchi.

Ma’lumki, ayollarning ijtimoiy faolligi ikkinchi jahon urushi yillarida yanada ortdi. Ularning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyi ham shunga yarasha yuksaldi. Keyingi yillarda ham bu jarayon shu tarzda kechdi. Tabiiyki, erkak va ayolning jamiyatdagi an’anaviy rollariga o‘rganib qolgan erkaklarning buni qabul qilishi oson emasdi. Ayrim erkaklarda ayoldan ortda qolish qo‘rquvi paydo bo‘ldi. Yigitali shunday qo‘rquv sabab sevgan qizidan ruhan uzoqlashib, “ma’buda”dan har tomonlama ustun bo‘lishga urinadi – vasvasaga uchadi. “Ayniqsa, bitiruvchilarning tantanali kechasida Nazirani ko‘klarga ko‘tarib maqtagan direktorning gaplari Yigitalini dovdiratib qo‘ydi: “E-ha, gap bu yoqda ekan-da! Endi undan umidingni uzaver, Yigit. Nazira oltin medalli, maktabning aktiv jamoatchi o‘quvchisi, komsomol komitetining sekretari. Sen kim bo‘psan uni oldida… Besh yil shahar tuzini totib, oliy ma’lumotli bo‘ladi. O‘shanda sen taroziga tosh bo‘lishga ham yaramaysan” [11. B. 12]. Bu holatga Yigitalining do‘sti Sobirning munosabati: “Qiz boshi bilan u Toshkentga borib o‘qisin-u, Yigitali qishloqda tegirmon changiga belanib yursin? [11. B. 17] Aslida muallif qahramonning ichki monologidagi nuqtayi nazarni berish bilan kifoyalansa bo‘lardi, lekin do‘stining munosabatini ham keltirish orqali buning ijtimoiy

ongda shakllanib ulgurgan umumiy fikr ekaniga urg‘u beradi. Yigitalining keyingi harakatlari Naziradan ustun ekanini isbotlashga qaratiladi.

Har ikki romanda qizlar qishloqda qolsa-da, o‘ziga ishonchi, harakatlari bilan, bir so‘z bilan aytganda, o‘z kuchi bilan muayyan maqomga, muvaffaqiyatga erishadi. Yigitlarda esa iqtidor, salohiyat bo‘lsa-da, o‘ziga nisbatan ishonch to‘la shakllanmagan. Shu sabab ular maqsadga yetishning oson va yengil yo‘li – manfaatli nikoh tanlovini amalga oshiradi.

Manfaatli nikoh. Makoniy xususiyatlarning personaj ruhi, shaxsiyatidagi ifodasi qishloq-shahar ziddligi vositasida yoritilgan. Jumladan, sof qadriyatlar va ularga qahramon(lar)ning sodiqligi qishloq bilan, ma’naviy inqirozi esa shahar bilan bog‘langan.

Naziraning qishloqdagi uch yillik mehnatda tashqi ko‘rinishi o‘zgargan: “*qirmizi olmadek lo‘ppi yuzlari qora tortib, ko‘zlari atrofiga ajin qo‘nganday, qo‘llari dag‘allashib, bu dag‘allik butun qomatiga ham urib turganday… Haqiqatan “mehnatga berilib ketibdi” deb qo‘ydi ichida. O‘ziga qaramay qo‘yibdi deyishga tili bormadi*” [11. B. 32]. Ayni shu nuqtada qiz Yigitali nazdida “ma’buda” maqomidan oddiy qishloq qizi maqomiga tushadi. Bir vaqtlar Nazira bilan teng bo‘lishga, shaharga ketib, u bilan birga o‘qishga intilgan Yigitali endi o‘zini undan yuqorida deb biladi. Muallif personajdagi psixologik o‘zgarish uning shaharda o‘qigani bilan bog‘liq ekanini alohida urg‘ulaydi: *“Parvozing juda baland-ku. Biolog olim bo‘lib ketmasang edi hali. – Yigitali qandaydir dimog‘dorlik bilan gapirib, Naziraga yer ostidan qarab qo‘ydi”* [11. B. 30]. Umuman olganda, bu holat manfaatli nikoh motiviga ham ta’sir etadi. Ya’ni Yigitali martaba va boylik ilinjida emas, aksincha, shaharlik qizga uylanish bilan o‘zi ham u yerga daxldor bo‘lishni istaydi. Boshqacha aytsak, manfaat va sevgi tanlovi shahar va qishloq tanlovi bilan yonma-yon turadi va bu manfaat semasiga makonga daxldorlik manfaatini ham qo‘shadi. Shu bois, mazkur romandagi motiv variantida manfaat obyektining aniqlovchisi “shaharlik” so‘zi bo‘lishini taqozo etadi.

“*Boylik va yuqori martabaga o‘ch Poshsha xolaning hiylasi, shuningdek, shaharda yashash ishtiyoqi sabab Yigitali* ***shaharlik*** *La’liga uylan**d**i*”.

1-jadval

“Osmon ustuni” romani syujetidagi manfaatli nikoh motivlar kompleksi sxemasi

Asar nomi	Predikat	Subyekt	Obyekt	Manfaat	Variant	Invariant
“Osmon sutuni”	Manfaatli nikoh rejasini tuzish (MNR)	Poshsha-xola	Yigitali va La’li	Boylik	Poshshaxola qizi – La’lini boylik uchun aspirant Yigitaliga turmushga berishni rejalashtirdi.	MNR, MNTB, MNTQ, MNAO, MNTRE
	Manfaatli nikoh taklifini berish (MNTB)	Poshsha xola, Shodi Mudarrisovich	Yigitali va La’li	Boylik (Poshshaxola). Kelajakda yuqori martabaga erishishi mumkin bo‘lgan aspirantni o‘z iskanjasida ushlab turish, tilini qisish (Shodi Mudarrisovich)	Poshshaxola va Shodi Mudarrisovich o‘z manfaatlarini ko‘zlab Yigitaliga manfaatli nikoh taklifi (talabi)ni berishdi	
	Manfaatli nikoh taklifini qabul qilish (MNTQ)	Yigitali	La’li	Ilmiy faoliyatini davom ettirish, shaharda yashash imkonini saqlab qolish, qishloq hayotiga qaytmaslik	Yigitali muayyan manfaatlarni o‘ylab manfaatli nikoh taklifini qabul qildi.	
	Manfaatli nikoh amalga oshishi (MNAO)	Yigitali, La’li, Poshshaxola, Shodi Mudarrisovich	La’li va Yigitali	Boylik (Poshshaxola); kelajakda yuqori martabaga erishishi mumkin bo‘lgan aspirantni o‘z iskanjasida ushlab turish, tilini qisish (Shodi Mudarrisovich) Ilmiy faoliyatini davom ettirish, shaharda yashash imkoniyatini saqlab qolish, qishloq hayotiga qaytmaslik (Yigitali), nomini oqlash, boy va kelajagi bor yigitga turmushga chiqish (La’li)	“Boylik va yuqori martabaga o‘ch Poshsha xolaning hiylasi, Shodi Mudarrisovichning tazyiqi bilan, yana shaharda yashash ishtiyoqi sabab Yigitali shaharlik La’liga uylandi.	

	Manfaatli nikohni rad etish (MNTRE)	Yigitali	Poshsha xola, Shodi Mudarrisovich, La'li	Nikoh vositasida erishilgan soxta narsalardan voz kechish	Yigitali La'li bilan ajralishga qaror qildi	

Harakatni amalga oshiruvchi shaxs (subyekt) – qaynona (Poshsha xola), Shodi Mudarrisovich, Yigitali; qahramon tomonidan bajariladigan harakat – manfaat uchun uylanish, harakat yo‘naltirilgan obyekt – La'li, Yigitali; harakat joyi – Toshkent.

Romanda yetakchi manfaat subyekti savdogarlik bilan shug‘ullanuvchi Poshsha xola – qaynona. U xarakter xususiyatlari bilan “Qutlug‘ qon”dagi Yormatga yaqin, xuddi Oybek qahramoniday o‘z qizini boy va obro‘li kuyovga uzatishdan manfaatdor. Bizningcha, mazkur personaj ona mehridan mosuvo tarzda, sun'iy, biryoqlama tasvirlangan. 60-yillarda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida tub burilishlar kuzatildi. Ayniqsa, iqtisodiy munosabatlar jonlandi. Shaharlarda “bir qop pul orqalagan oldi-sotdiga ustasi farang” savdogarlar qiyofasi shakllanadi. G.Nijaradze ta'biri bilan aytsak, bunday kishilar “o‘z-o‘zidan “qo‘li egrilar” toifasiga tirkab qo‘yilardi” [12. B. 136]. Poshsha xola suyagi “bozorda qotgan”larning umumlashma obrazidir. Manfaatli nikoh motivi ham xarakterli motiv sifatida o‘ziga ekvivalent o‘laroq boylikka, obro‘-martabaga o‘ch xarakterning syujetda harakatlanishini taqozo etadi. Aytish mumkinki, biz tahlil qilgan manfaat subyektlari orasida shu jihatdan eng xarakterli, qora bo‘yoqlarda tasvirlangan personaj Poshsha xoladir.

U tuzgan reja bexato ishlagan. Mohiyatan, qizi ham uning maqsadlari yo‘lida bir vosita. Poshsha xola Yigitalini “ayb ustida” qo‘lga tushirganki, bir qarashda qahramon tuzilgan rejaning qurboniday ko‘rinadi. Aslida unday emas. Poshsha xola u ishlayotgan oliygohda to‘polon ko‘targan, holatga Shodi Mudarrisovich aralashgan bir vaziyatda u tanlov qarshisida qoladi: “Qishloqdagilarni ko‘ndirish, o‘zini Poshsha xola qo‘liga topshirish yoki uy, ish, La'li, dissertatsiya... barchasini yig‘ishtirib qo‘yib, hammasiga qo‘l siltab, qishloqqa ketish” [11. B. 134]. Ayni shu nuqtada shahardagi uy, mansab, ilmiy faoliyatini asrab qolishni o‘ylab, birinchi yo‘lni tanlash bilan u manfaat subyektiga aylanadi. Xuddi shunday holat Mirmuhsinning “Umid” romanida Umid va Janna taqdirida ham takrorlanadi. Shunisi borki, La'li onasi ta'sirida o‘z go‘zalligini ko‘z-ko‘z qilishga o‘rgangan, mol-dunyo, kiyim-kechak, qimmatbaho buyumlarga mehr qo‘ygan bo‘lsa-da, Janna kabi axloqan buzuq, muayyan manfaat uchun turmush qurishni maqsad qilgan emas. Janna “o‘zini oqlab olish” maqsadida reja bilan harakatlansa, ya'ni yetakchi manfaat subyekti bo‘lsa, “Osmon ustuni” romanida manfaatli nikoh tegrasidagi voqealar Poshsha xola rejasi asosida kechadi. Ya'ni La'li motiv variantida yetakchi manfaat subyekti emas, asosan, manfaat obyekti maqomida qoladi.

“Odam bo‘lish qiyin” romanida manfaatli nikoh motivlar kompleksi ayni vaqtgacha tahlil qilganimiz motiv variantlaridan manfaat subyekti birgina personajdan iborat ekani bilan farqlanadi. Tabiiyki, motiv halqalari ham shunga mos tarzda variatsiyalangan. Bunda sinovlar yo‘liga chiqqan qahramonga berilgan nikoh taklifi me'yoriy nikoh semasini ifodalagan. Ya'ni ota-ona bergan nikoh taklifida hech qanday g‘arazli manfaat mavjud emas, yoshlarning baxt-iqbolini ko‘rish orzusi bor, xolos. Shu sababli, “Sarob”, “Umid”, “Osmon ustuni” variantlaridagidan farqli tarzda motiv halqalarida ota-ona, qaynota-qaynona bilan manfaat asosida “shartnoma tuzish”, kelishish holati kuzatilmaydi. Rejalashtirilgan nikohda manfaat subyekti birgina personaj – Abdulla bo‘lib, u akademikka kuyov bo‘lishni “kelajak kafolati” deb biladi. Uning nazdida, maqsadga yetish uchun shunchaki tanish yoki shogird bo‘lish bilan cheklanish yetarli emas. “Tursunali aka (bo‘lajak qaynota – *D.A.*) obro‘li odam, u hech mahal qarab turmaydi. Qo‘lidan kelgancha unga yordam beradi, yo‘l ko‘rsatadi. Har holda begona emas, oddiygina shogird emas, kuyov. Yakka-yu yagona qizining umr yo‘ldoshi! Umr yo‘ldoshi...” [10. B. 124].

Ayrim motiv variantlarida kuzatilgan iqtidorli, salohiyatli yoshlarni “ovlaydigan” qaynota-qaynonalardan farqli ravishda Tursunali aka diyonatli odam. U qizini yaxshi kuyovga berish vositasida nimagadir erishishni maqsad qilgan emas. Uning qizi Sayyora ham boylikka mukkasidan ketgan qizlar toifasiga kirmaydi. Ya'ni uni shaxsiy sifatlariga asoslanib La'li (“Osmon ustuni”), Janna (“Umid”) kabi “soxta ma'buda” deb bo‘lmaydi. U haqda “yengiltak qiz bo‘lsa kerak” deb o‘ylagan Abdulla ikkinchi uchrashuvdayoq “juda serfikr, aqlli qiz ekan” [10. B. 108], degan xulosaga keladi.

2-jadval

“Odam bo‘lish qiyin” romanidagi manfaatli nikoh motivlar kompleksi sxemasi

Asar nomi	Predikat	Subyekt	Obyekt	Manfaat	Variant	Invariant
“Odam bo‘lish qiyin”	Nikoh taklifini berish (NTB)	Tursunali aka	Abdulla	*Yolg‘iz qizini munosib yigitga turmushga berish*	Tursunali aka Abdulla oilasiga nikoh taklifini berdi.	MNTQ, MNR
	Nikoh taklifiga rozi bo‘lish (NTRB)	G‘afur aka	Tursunali aka	*Yolg‘iz o‘g‘lini munosib qizga uylantirish*	G‘afur aka Tursunali aka bergan nikoh taklifiga rozi bo‘lishdi.	
	Manfaatli nikoh taklifini qabul qilish (MNTQ)	Abdulla	Tursunali aka, Sayyora	Akademikning qiziga uylanish bilan farovon hayotga erishish	“Abdulla akademikning qizi – Sayyoraga uylanish bilan farovon hayotga erishishni ko‘zladi va sevgan insoni – Gulchehradan voz kechib manfaatli nikoh taklifini qabul qildi”.	

Izoh: Kursivda berilgan manfaatlar biz nazarda tutuvchi manfaatlar semantik uyasiga mansub emas.

Romanda nikoh taklifi berilishi va qabul qilinishi halqalari qisqa, hech qanday konfliktsiz, yoshlarga yuborilgan ota-ona maktubi vositasida ifodalangan. Sayyora Abdulla nazdida “chiqib bo‘lmaydigan qoyaning ustida edi”. Maktubdan so‘ng qiz kuyovlikka nomzod sifatida Abdullani o‘ylay boshlasa, yigit ham avvalgidan boshqacharoq o‘ylab, harakatlana boshlaydi. Syujetning ayni shu o‘rinlarida Abdulla uchun yana bir tanlov reallashadi. Bu tanlovda muallif avvalboshdan alohida urg‘ulab kelayotgani – personaj tabiatidagi xudbinlik yuqori cho‘qqida namoyon bo‘lgan. U o‘ziga ishonib nomusini topshirgan Gulchehrani emas, Sayyorani, boshqacharoq aytsak, iqtidori bilan, yillar davomida mashaqqat chekib erishiluvchi muvaffaqiyatni emas, balki osonlik bilan qo‘lga kiritilishi mumkin bo‘lgan muvaffaqiyatni – manfaatli nikohni tanlaydi. Og‘ir ahvolda qolgan Gulchehrani, u bilan bo‘lgan yaqin munosabatni o‘ylamaslikka harakat qilarkan, vaziyatning yechimini qizga havola etadi. Xuddi “Amerika fojiasi” romanidagi Klayd Griffits kabi Abdulla ham boylik va martaba ilinjida otalik mas’uliyatidan bosh tortadi. Har ikki personajning harakati yakunda fojiaga – qizlarning o‘limiga sabab bo‘ladi. Faqat ikki ijodkorning personajga, uning atrofida kechayotgan voqelikka munosabati keskin farqlanadi. Klayd Griffits Robertani o‘ldirish rejasini tuzib, buni amalga oshirsa, Abdulla Gulchehrani o‘ldirishni xayoliga ham keltirmagan, shunchaki uni tark etishini, hayotidan chiqib ketishini istaydi. Ikki personajni harakatga keltirayotgan kuch bu – boy va asilzoda qizning e’tirofi, uning ortidagi to‘kin hayotga shaydolik. E.Giddens zodagonlar tomonidan sodir etilgan jinoyat – “Oq yoqalilar jinoyati” haqida ularni “fosh qilish uchun ko‘pincha katta mehnat talab qilinadi va bunday qonunbuzarlar qamoqxonaga juda kam tushadi” [13. B. 171], deb yozadi. T.Drayzer Klayd sodir etgan jinoyatning dahshatiga urg‘u bersa-da, uning kambag‘al oila vakili bo‘lgani uchungina o‘lim jazosiga hukm qilinganini oqlamaydi. Uni himoya qilayotgan advokat xuddi shunday vaziyatdan zodagon otasining ko‘magi bilan silliq chiqib ketganini tasvirlarkan, yozuvchi Klaydning yosh, g‘o‘r holida sodir etgan jinoyati “olomon” nazdidagi “mudhish”likdan o‘zgacha ekanini uqtirishga urinadi. O‘lmas Umarbekov asarida esa Abdullaning o‘zi, uning atrofidagilar ham qizning o‘limida qahramonni chinakam aybdor sifatida ko‘radi.

“Hammasiga o‘sha yigit aybdor! Oti qurg‘ur Abdulla!” [10. B. 251] (Abstutay nutqi);

“Ablah! Men uni sog‘ qo‘ymayman” [10. B. 252] (Qosimjon nutqi);

“Buvim unaqa nevaram yo‘q dedilar. Nima qiluvdingiz, tog‘a” [10. B. 254] (Tursun nutqi);

“Nima degan odam bo‘ldi u endi? Odamlarning yuziga qanday qaraydi? Qanday yashaydi?” [10. B. 253] (o‘ziniki bo‘lmagan muallif nutqi);

“...hali uzoq yillar, balki umrbod qalbini timdalaydigan gunoh azobi bilan qarab qoldi” [10. B. 261] (muallif nutqi).

Demak, motiv variantlarining adabiy-madaniy kontekstdagi mushtarakliklari yuqori sathlarda, katta o‘lchamlarda namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga,

yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, G‘arb va Sharq ijodkorlari dunyoqarashi, olam va odamga munosabatdagi farqlar, milliy kolorit xususiyatlari ham motiv variantlarida o‘z izini qoldiradi.

Biz tadqiq etgan badiiy asarlarning aksarida manfaatli nikoh motivining yuzaga chiqish ehtimoli yoki uning nihoyalanishi o‘lim motivi bilan bog‘lanadi.

O‘tkan kunlar”da manfaatli nikohning barbod bo‘lishiga turtki: *zaharlash* (o‘lim);

“Kecha va kunduz”da manfaatli nikohning nihoyalanish shakli: *zaharlash* (o‘lim);

“Qutlug‘ qon”da manfaatli nikohning yakunlanish shakli: *zaharlash* (o‘lim);

“Sarob”da manfaatli nikohning tugash shakli*: o‘z joniga qasd qilish* (o‘lim);

“Amerika fojiasi”da manfaatli nikohning yuzaga kelish ehtimoli: *jinoyat* (o‘lim);

“Anna Karenina”da manfaatli nikohning barbod bo‘lish shakli: *o‘z joniga qasd qilish* (o‘lim).

“Odam bo‘lish qiyin”da manfaatli nikohning yuzaga chiqish ehtimoli: *tasodifiy o‘lim*;

“Osmon ustuni”da manfaatli nikohning *davomiyligi farzandning o‘limi*ga sabab bo‘ladi, shunday bo‘lsa ham bu nikoh barbod bo‘lmaydi, keyinchalik u me’yoriy nikohga o‘zgaradi.

Jazo. Qadimdan insonlar qilingan yaxshi amal uchun *mukofot*, yomon ish uchun *jazo* berilishiga ishonadi. Mif, afsona, ertak, doston, roman – barcha adabiy-badiiy matnning asosiy konsepsiyasi ham shu qonuniyatga bo‘ysunadi. Manfaatli nikoh motivi syujetda reallashgan variantlarning deyarli barida jazo – o‘lim mavjudki, bu ham adabiy-madaniy, ijtimoiy-psixologik kontekst doirasida izohlanishi zarur. “Osmon ustuni”da Yigitali va La’li farzandining Poshsha xola e’tiborsizligi tufayli halok bo‘lishi, birinchi galda, Yigitali uchun jazodir. U Poshsha xola va Shodi Mudarrisovich ta’siridan chiqib ketishga harchand urinmasin, buni to‘laligicha uddalay olmaydi. Syujetning ayni shu o‘rinlarida Shodi Mudarrisovichning “uyi yonadi”[5*], ya’ni uning soxta olimligi oshkor bo‘lib, tashvishlarga o‘ralashib qolgan professor o‘z-o‘zidan Yigitali hayotidan chiqib ketadi. Poshsha xola esa, dastlab, Yigitali tomonidan qilgan yomonliklari tufayli uydan haydaladi, keyinroq tilla buyumlarini o‘g‘irlab ketayotgan paytda La’li bu voqeaning guvohi bo‘lgach, “so‘nggi suyanchig‘i – yolg‘iz qizidan ham ajraldi...” [10. B. 234].

Xulosa

Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, manfaatli nikoh motivlar kompleksiga asoslangan syujet, odatda, asar personajlaridan birining *o‘limi* bilan xotimalanadi. Dadaxon Nuriy asarida esa *farzand o‘limi*dan so‘ng ham nikoh saqlanib qoladi. Faqat u endi manfaatli nikoh mazmunini ifodalamaydi. Yetakchi manfaat subyektlari Poshsha xola va Shodi Mudarrisovichlarning ta’siridan holi oilada er-xotin orasida o‘zaro hurmat, hamjihatlik yuzaga keladi. “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, “Kecha va kunduz”, “Qutlug‘ qon”, “Sarob”, “Osmon ustuni” kabi romanlarda manfaat subyektlari birdan ortiq va ularning har biri manfaatli nikohga qo‘shgan hissasi, uning amalga oshish jarayonidagi harakatlariga ko‘ra jazolanadi. Ya’ni, biri qizini, biri o‘g‘lini, biri aql-u hushini yo‘qotadi, yana biri esa boshqasi tomonidan o‘ldiriladi va h.k. Mazkur romanlardagi manfaatli nikoh motiv variantlaridan farqli “Odam bo‘lish qiyin” romanida manfaat subyekti, yuqorida ta’kidlaganimizdek, birgina personaj – Abdulla. Shunga ko‘ra, jazo halqasi ham faqat u uchun reallashgan. Gulchehraning o‘limidan so‘ng Abdulla ruhiy qiynoq, pushaymonlik bilan ham ortga – o‘tgan yillarga, ham botiniga nazar solib, o‘z-o‘zini taftish qiladi. Vijdon azobi unga berilgan og‘ir jazodir.

Adabiyotlar:

1. *Бахтин М*. Романда замон ва хронотоп шакллари. – Тошкент: Академнашр, 2015. – 288 б.

2. *Қуронов Д*. Талқин имконлари. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015. – 88 б.

3. *Қуронов Д.* “Хамса” достонларининг “Ўткан кунлар”даги изларига доир // «Алишер Навоий ва Шарқ ренессанси» мавзусидаги халқаро симпозиум материаллари.- Тошкент: Саҳҳоф, 2025. – Б.29-46

4. *Quronov D*. Adabiyot nazariyasi asoslari – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480 б.

5. “Har kimning mehnati o‘ziga shirin”. [Internet manba]. URL: https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xari-

[*] E.N.Duvakinga ko‘ra, «“Твой дом горит” – “sening uying yonyapti” motiv varianti juda keng hududlarga yoyilgan. 70 ming matnni ayni shu motiv bo‘yicha birlashtirish mumkin. “Iblis ayoldan qutulish yoki qush, xonqizining uchib ketishi uchun ular yashaydigan joy (uy, tepalik, o‘rmon va h.) va yoki ularning bolalari yonmoqda, deya xabar berish kerak”. Bu kabi “zararkunanda” personajning bosh missiyasi qahramonning tinch-osoyishta hayotini buzish. “Sening uying yonyapti” yoki “bolalaring xavf ostida” degan xabar bilan qahramon undan qutuladi. Bu haqda qarang: Березкин Ю.Е., Дувакин Е.Н. Тематическая классификация и распределение фольклорно-мифологических мотивов по ареалам. Аналитический каталог // URL: https://www.ruthenia.ru/folklore/berezkin/ [Murojaat etilgan sana: 10. 11. 2024]

ta/uzbek-xalq-ogzaki-ijodi/uzbek-xalq-ertaklari/har-kimning-mehnati-o-ziga-shirin. (Murojaat etilgan sana: 13.01.2024).

6. *Радь А.Э.* История «Блудного сына» в русской литературе. Модификации архетипического сюжета в движении эпох. – Москва: Флинта, 2024. – 276 с.

7. Митрополит Сурожский Антоний (Блум) [Электрон ресурс]. URL: https://azbyka.ru/otechnik/Antonij_Surozhskij/ (Дата обращения: 13.06.2024).

8. *Азим У*. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 1995. – 432 б.

9. *Mamtaliyeva F.* Usmon Azim lirikasida uch og‘a-ini arxetip obrazi // “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb muommolari”. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Andijon. – B. 240–244.

10. *Umarbekov O*‘. Odam bo‘lish qiyin: roman va hikoyalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 352 b.

11. *Нурий Д*. Осмон устуни. Роман. / О.Ёқубов таҳрири остида. – Ёш гвардия, 1979. – 272 б.

12. *Нижарадзе Г.* Бизким, гуржилар. // Жаҳон адабиёти, 2000. – № 7. – Б. 127–145.

13. *Гидденс Э.* Социология. / Тарж. Н.Маматов, Ж.Бегматов – Тошкент: Шарқ, 2002. – 848 б.

THE INFLUENCE OF THE “KEEPER OF THE HOUSEHOLD” ON THE VARIATION OF THE CONVENIENCE MARRIAGE MOTIVE (In the example of the novels “Pillar of the sky” and “It’s hard to be a human”)

Dilobarkhan A. Azizova[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2024. 7(83). 55-63.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan) E-mail: agsu_ info@edu.uz

Key words: *“keeper of the household”, motive, complex of motives, plot schemes, literary and cultural context, social consciousness.*

The complex of motives of marriage of convenience is analayzed in the novels ‘Column of Heaven’ and ‘It is difficult to be a person’ by the article. The dialogical relationship of novels of art created in a certain period is based on the classification of the motive components of convenience marriage and their functions. The issue of the activation of the “guardian of the household” and its influence on the variation of the motive of marriage of convenience is also highlighted. In studying the problem posed, mythological, comparative-typological, structural, and psychological analysis methods were used.

The main characters Abdulla in ‘It’s hard to be a person’ and Clyde Griffiths in the novel ‘An American Tragedy’, who refuse to take on the responsibility of fatherhood in pursuit of wealth and career, and the similarities in the motives of both characters, which ultimately lead to tragedy - the death of the girls. At the same time, the two authors’ different attitudes towards the characters and the reality around them are also noted. While Clyde Griffiths hatches a plan to kill Roberta and carries it out, Abdulla does not even think of killing Gulchehra, he simply wants her to leave her, to leave her life. The driving force behind the two characters is the confession of a rich and noble girl, and the joy of a fulfilling life behind her. Although T.Dreiser emphasizes the horror of the crime committed by Clyde, he does not justify his sentencing to death just because he is a representative of a poor family. While the lawyer defending him describes how he escaped a similar situation with the support of his noble father, the writer tries to make it seem as if Clyde’s crime, committed in his youth and as raw man, is different from the ‘horrible’ crime that the ‘crowd’ blame. In O‘lmas Umarbekov, Abdulla himself and those around him see the hero as truly guilty of the girl’s death.

The hero of the novel ‘The pillar of the sky’ Yigitali does not seek a different career and wealth from Abdulla, but on the contrary, by marrying a city girl, he wants to belong there. In other words, the choice of interest and love stands side by side with the choice of city and countryside, and this semantics of interest also adds the interest of belonging to space. So, the semantics of the variant of the convenience of marriage motive variation is updated in each literary work of art, expanding the acceptable content for the invariant.

References:

1. Bahtin, M. (2015). Romanda zamon va xronotop shakllari [Forms of time and chronotope in the novel]. Tashkent. Akademnashr.

2. Quronov, D. (2015) Talqin imkonlari [Interpretation possibilities]. Tashkent. Akademnashr.

3. Quronov, D. (2025) Xamsa dostonlarining “O‘tkan kunlar”dagi izlariga doir. [About the traces of Hamsa’s epic poems in «By gone days»]. Тошкент: Саҳҳоф.

4.Quronov, D. (2018). Adabiyot nazariyasi asoslari [Basics of literary theory]. Tashkent. Akademnashr.

5. Har kimning mehnati o‘ziga shirin. [Everyone’s work is sweet to himself]. [Online]. URL: https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-xalq-ogzaki-ijodi/uzbek-xalq-ertaklari/har-kimning-mehnati-o-ziga-shirin. (Date of Access: 13.01.2024).

6. Rad, A.E. (2024) Istoriya «Bludnogo syna» v russkoj literature. Modifikacii arhetipicheskogo syuzheta v dvizhenii epoh [History of the prodigal son. Modifications of the archetypal plot in the movement of eras]. Moscow: Flinta.

7. Mitropolit Surozhskij Antonij (Blum) [Metropolitan Anthony of Sourozh (Bloom)]. [Online]. URL: https://azbyka.ru/otechnik/Antonij_Surozhskij/ (Date of Access: 13.06.2024).

8. Azim, U. (1995) Saylanma [The favorites]. Tashkent: Sharq.

9. Mamtaliyeva, F. (2024) Usmon Azim lirikasida uch og‘a-ini arxetip obrazi [The archetypal image of three brothers in Usman Azim’s lyrics]. In: ‘O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb muommolari’ [‘Current issues of Uzbek literary studies’]. Materials of the international scientific and practical conference. Andijan. Pp. 240-244.

10. Umarbekov, O‘. (2015) Odam bo`lish qiyin: roman va hikoyalar [It is difficult to be aperson. Novels and stories]. Tashkent: Yangi asr avlodi.

11. Nuriy, D. (1979) Osmon ustuni [Sky pillar]. Roman. Tashkent: Yosh gvardiya.

12. Nijaradze, G. (2000) Bizkim, gurjilar [Who are we Georgians]. *Jahon adabiyoti.* No 7. Pp. 127-145.

13. Giddens, E. (2002) Sotsiologiya [Sotsiology]. Tashkent. Sharq.

Muallif haqida ma’lumot:

AZIZOVA Dilobar Abdujalil qizi – Andijon davlat universiteti O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi tayanch doktoranti. E-mail: dilobarazizova@gmail.com